

QADIM VA NAVQIRON NUROTA – RASSOM NIGOHIDA

Maxtaganov Oydinbek Duysebekovich

*O‘zbekiston badiiy Akademiyasi Navoiy ixtisoslashtirilgan
san’at maktab-internati rangtasvir mutaxassis fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada qadim va navqiron Nurota – rassom nigohida qanday gavdalanishi, Navoiy viloyati tarkibiga kiruvchi ushbu ziyoratgoh taassurotlari haqida so‘z boradi.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: ota-bobolarimizning boy adabiy merosi, Nurota tumani geografiyasi tasviriy san’atda gavdalandirish.

Natija: *Ko‘hna va doimo navqiron Nurota shahri xususida ko‘plab rivoyatlar va afsonalarni jonlantirish, rangtasvirda aks ettirish.*


Kalit so‘zlar: *Nurota tumani, rangtasvir, tabiat, ziyoratgoh, manzara, muqaddas qadamjoh, ajdodlar merosi...*

Ming yillik tariximiz sahifalariga Nur shahri nomi bilan muhrlangan Nurota vatanimizning muqaddas shaharlaridan bo‘lib, istiqloq sharofati bilan bugun uni butun dunyo taniydi. Abu Bakr Muhammad Ja‘far Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida Nurato haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: "Nur katta va go‘zal joy, unda masjidi jome’ bor. U ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a qiladilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishining fazilatlariga ega bo‘ladi. U ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havozaband qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda "Nuri Buxoro" deb ataydilar". Bu muqaddas makonga kirib borilar ekan, eng avvalo tog‘lar bag‘rida jo bo‘lgan qadimiy qal‘a xarobalari ko‘zga tashlanadi. Ushbu qal‘ani arxeolog olimlardan V. Nilson, Y. G‘ulomov, M. Rostovsevlar tekshirishgan. Akademik Y. G‘ulomov o‘z tekshirishlari natijasida Nur qal‘asi tevaragi milodiy V-VI asrlarda uzun devor bilan o‘ralib, mahalliy xalq uni "Piyраста", yoki "Tik devor" deb atashganini yozadi. Nur qal‘asi o‘tmishda Jizzaxdan so‘ng Buxoro va Samarqandga kirishda ikkinchi darvoza vazifasini o‘tagan. Shu o‘rinda Nurota tumanining geografik joylashuvi, tabiati va iqlimi haqidagi ma’lumotlarni keltirishni joiz topdim. Nurota tumani Navoiy viloyatida joylashgan bo‘lib, Shimolidan viloyatning Tomdi, g‘arbdan Konimex tumanlari, Buxoro viloyati, sharqdan Jizzax viloyati, janubidan Navoiy, Xatirchi tumanlari, Samarqand viloyati bilan chegaradosh hisoblanadi. Nurota tumani geografiyasi Navoiy viloyatining boshqa viloyatlari orasida eng xilma-xildir. Tumanning shimoliy va g‘arbiy qismlarini cho‘l va dashtlar, janubiy va sharqiy qismlarini tog‘lar, yaylovlar va sug‘oriladigan yerlar egallaydi. Tuman markazi — Nurota shahridir.



O‘rta Osiyo davlatlari hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar hozirgi Nurota viloyati hududi Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng mintaqaning sharqiy qismi Rossiya imperiyasining Samarqand viloyati, g‘arbiy qismi esa yarim mustaqil va vassal Buxoro amirligi tarkibiga kirgan. Nurota tumani 1926-yil 29-sentabrda Buxoro viloyati tarkibida tashkil etilgan. 1982-yil 20-aprelda Nurota viloyati Buxoro va Samarqand viloyatlarining shimolida yangi tashkil etilgan Navoiy viloyati tarkibiga o‘tkazilgan. 1988-yil 6-sentyabrdan 1992-yil 27-yanvargacha Navoiy viloyati tugatilishi natijasida yana Samarqand viloyati tarkibiga kirdi. 1992-yil 27-yanvarda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan bir yil o‘tib Navoiy viloyati qayta tiklandi va viloyat yana shu hudud tarkibiga kirdi. Nurota tumani hududining shimoliy Aydar sho‘rxoklari, Qizilqum va Qoratog‘ bilan, markazi va janubiy Nurota va Oqtog‘ tizmalari hamda ular orasidagi botiqlar bilan band.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Ko‘hna va doimo navqiron Nurota shahri xususida ko‘plab rivoyatlar va afsonalar mavjud. Ularning deyarli barchasida nurotaliklarning muqaddas "Ka'ba"si hisoblanmish muqaddas chashma ulug‘langan. Chashmaning g‘aroyib va mo‘jizali qudrati oldida insoniyat lol qoladi.



Chashma suvining rangsiz, hidsiz, yumshoq shirinligi, haroratining muttasil qishin-yozin bir xilda bo‘lishi (19,5 gradus), har daqiqada 360-400 litr sig‘imda qaynab chiqib turishi, sersuvligi, tarkibida turli shifobaxsh mikroelementlarning mavjudligi bir qator xastaliklarga shifodir. Chashmaning tip – tiniq zilol suvida suzib yurgan baliqlar ham inson ruhiyatiga yengillik baxsh etib, ko‘ngillarni ravshan torttiradi. Baliqlarni mahalliy xalq va sayohatchilar tabarruk deb bilishadi. Nurotadagi "Chashma" me‘moriy majmua muzeyi tarkibiga Nur chashmasi, Nur qal‘asi, IV asr yodgorligi "Chilustun" jomesi, XVI asr yodgorligi "Panjvaqt", "Katta gumbaz" masjidi, muzey

zallari, Shayx Abdulhasan Nuriy maqbarasi, Nurgul binti Abulhasan qabri, Nurgulato qudug‘i va madrasa hujralari kiradi.

Men rassom sifatida aynan Nurota tumanining go‘zal tabiati, iqlimini tasvirlashga harakat qildim va o‘z ijodimda namoyon etdim. Bunda rangtasvirdan foydalandim. Siz ham erta bahor barxanlar uzra quyosh taftidan yal-yal yashnab atrofga go‘zallik baxsh etguvchi yantoq, saksovol kabi sahro o‘simliklarining go‘zal gullarini hech kuzatganmisiz? Yoki bolaligingizda suv bo‘yida chopqillab yurib, katta-katta ariqlar chekkasiga urilgan to‘lqinlar ortidan uyulib qolgan qumliklardan turli ertak qahramonlarini tasvirlab, saroylar qurganmisiz? Daraxt shoxlaridan cho‘p yasab, ana o‘sha qumliklarga rasmlar chizganmisiz?



Men ham o‘z ijodimda aynan rangtasvirdan unumli foydalandim. Chunki, tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi o‘zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi tasviriy san‘atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo‘lishi o‘quvchilarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didni, rang sezishni, fazoviy tasavvurini, buyuk rassomlar asarlarini go‘zalliklarini ko‘ra bilishga va ulami hissiy idrok etishga olib keladi. Xullas, qadim va navqiron Nurota – rassom nigohida aks etishi yosh avlod qalbida faxr va g‘urur hissini shakllanishida xizmat qiladi. Shuning uchun tarixiy obidalarimizga hurmat uyg‘otish bizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati.-Toshkent: Mehnat, 1994-yil.